

## RENTGEN NURLARINING ORGANIZMGA SALBIY TA'SIRLARI.

*Siyob abu ali ibn sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

*Kayumova Sarvinoz Daminovna*

*Tuxtayeva Intizor Anvarovna*

*Sirojiddinova Nigora Kamaritdinovna*

*Email : [kayumovasarvinoz07@gmail.com](mailto:kayumovasarvinoz07@gmail.com)*

*[inti\\_1995@bk.ru](mailto:inti_1995@bk.ru)*

**Kalit so'zlar:** Rentgen, tomografiya, patologik , plyonka, suyaklar, nurlanish dozasi, radiatsiya, saraton

**Annotatsiya:** Bugungi kunda tibbiyot sohamizni yengillashtirib kelayotgan rentgen nurlari tibbiy tekshiruvlar uchun juda qulay, ammo ularning salbiy tasirlari ham mavjud ekan.

Rentgen nurlari paydo bo'lishi , qo'llanishi salbiy ta'sirlari.

Rentgen nurlari 1895-yilda V.K.Rentgen tomonidan kashf etilgan bo'lib dastlab X nurlar deb atalgan. Ular katta tezlikdagi elektronlarning moddada tormozlanishidan hosil bo'ladi . Rentgen nurlarini hosil qilish uchun bizga rentgen trupkasi kerak bo'ladi. Rentgen nurlari asosan ilmiy sohalarda, sanoatda, tibbiyotda qo'llaniladi . Rentgen nurlari yordamida ishlovchi rentgen kompyuter tomografiyasi og'riqsiz va xavfsiz tibbiy ko'rik hisoblanadi. Rentgen kompyuter tomografiyasi tananing qattiq to'qimalaridagi patologik o'zgarishlarni o'rganadigan qurilma bulib bunda shifokorlar apparatdan olingan natijalar asosida tashxis quyishda qiynalmaydi . Og'riqlarsiz, jaroxatlarsiz, lat yeyishlarsiz holatda tananing qattiq to'qimalaridagi tasvirni plyonkaga chiqarib beradi. Rentgen trupkasi kash etilgach roentgen kompyuter tomografiyasi qurildi va tibbiyot muassasalarida bosqichma-bosqich chiqarildi.

Rentgen kompyuter tomografiyasi suyaklar va ba'zi yumshoq to'qimalardagi shikatlanishlar, sinishlar va ichki qon ketishlar maydonini aniqlab beradi. Bunda bemorga ionlashgan nurlanish ta'sir qiladi. Bunday tekshiruv asosan qo'rg'oshin bilan qoplangan maxsus xonada o'tkaziladi . buning sababi metallargina rentgen nurlarini "tutib qolish " qobiliyatiga ega.

Rentgen nurlari to'qimalarning ichki tuzilishini xatta hujayralarni o'zgartirishga qodir kuchli nurlardir. Har doim nurlanish dozasi meyorga mos bo'lishi kerak. Rentgen nurlaridan foydalanishning salbiy taraflari mavjud . Bu nurlar inson organizmiga tushgach , to'qimalar faoliyatiga salbiy ta'sir kursatishi va saraton kasalligini keltirib chiqarish xavfi mavjud. Shu sababli organizmning rentgen tekshiruvlari oraliq masofasini saqlash shifokorlar tomonidan doimiy nazorat qilib

boriladi . Rentgen kompyuter tomografiyasi natijasida rentgen trupkasidan tushgan rentgen nurlari inson organizmidagi to'qimalarga tushadi va radiatsiyaga moyil insonlarda bu nurlanish saraton kasalligini keltirib chiqaradi yani rentgen nurlari usuvchi to'qimalarning o'suvchanligini oshirib, saraton o'sma kasalligini keltirib chiqaradi.

Rentgen kompyuter tomografiyasi homilador ayollarga va homilador bulishi mumkin bo'lgan ayollarimizga tavsiya etilmaydi bu ularning sog'ligiga va homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi . Bundan tashqari o'smir yoshdagi bolalar ham shu qatorga kiradi . Ularda ham bu amalyot o'tkazilmasligi maqul. Oramizda shunday insonlar borki ular radiatsiyaga moyil ularga ham bu mumkin emas .

Bugungi kunda tibbiyot sohamizni yengillashtirib kelayotgan rentgen nurlari tibbiy tekshiruvlar uchun juda qulay, ammo ularning salbiy tasirlari ham mavjud ekan shunday ekan biz rentgen nurlardan foydalanishda meyorda va foydalanish mumkin bo'lmagan holatlarda bu amalyotdan vos kechishimiz kerak ekan.